

QONUN IJODKORLIGI – TARAQQIYOT OMILI OILA MISOLIDA**Evatov Saminjon Sobirovich****FarDU Tadqiqotchisi****Nabiyev Iskandar Farxodjon o'gli****TATU Farg'ona filiali talabasi****Yoqubjonov Shavkatjon Toxirjon o'gli****TATU Farg'ona filiali talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10054071>**

Istiqlol yillarida izchil olib borilayotgan demokratik islohotlar samarasi o'laroq, mamlakatimizda xalq vakillik organi, qonun chiqaruvchi xokimiyat bo'lgan professional parlament to'liq shakllantirildi. Hozirda har ikkala palataning faoliyati tobora takomillashib, fuqarolarning xohish-irodasi, huquq va manfaatlarini ifodalovchi, tegishli qonun hujjatlari asosida mustahkamlovchi organ sifatida parlamentning jamiyatdagi o'rni tobora oshib bormoqda.

Yurtboshimiz SH. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir", deb nomlangan ma'ruzasida parlament faoliyatiga baho berib, quyidagilarni alohida ta'kidlagan edilar:

"Ma'lumki, birinchi bor 2004 yilda saylangan ikki palatali parlamentimizning faoliyati hayotimizning muhim bir davriga – mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrga to'g'ri keldi.

Parlamentning professional organi sifatida doimiy faoliyat olib boradigan, qonunlarni ishlab chiqadigan va qabul qiladigan quyi palatasi va hududiy vakillik organi sifatida mintaqalarimizning manfaatlarini to'liq aks ettiradigan yuqori palata bo'lmish Senatni shakllantirish bo'yicha asosiy vazifalar, umuman olganda, muvaffaqiyatli hal qilindi".

Darhaqiqat, ikki palatali parlamentning joriy etilgani va professional deputatlar korpusining shakllantirilgani qabul qilinayotgan yangi qonunlarning yanada mukammal bo'lishiga, unda mintaqalar, barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlari to'liqroq ifodalanishiga imkon yaratdi.

Qonun ijodkorligi samaradorligini oshirishda, parlament faoliyatini takomillashtirishda Senat va Qonunchilik palatasi hamkorligining ahamiyati katta. Bu hamkorlikni kengaytirish, uni qonun qabul qilishning barcha bosqichiga joriy etish foydadan holi bo'lmaydi. Birinchi bosqich – qonun loyihalarini kiritish va ko'rib chiqishga tayyorlashdan boshlab, ularni Qonunchilik palatasida o'qishdan o'tkazish, Senatda ko'rib chiqish va so'nggi – kelishuv va maxsus komissiyalarning ishigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladigan hamkorlik qonunlarning yanada mukammallashtirishiga xizmat qilishi shubhasiz. Ushbu bosqichlarning har biri aniq bir maqsadga xizmat qiladi va ularni yanada takomillashtirish zarur.

Darhaqiqat, qonun ustuvor jamiyatdagina haqiqiy demokratik taraqqiyotga erishiladi, inson manfaatlari to'liq himoyalanaadi. Ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlari va sud faoliyatida faqat va faqat qonun talablariga rioya etilishini to'liq ta'minlash ham oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Buning uchun qonunla-rimiz barchaga tushunarli, sodda tilda yozilishi, ayni paytda, amaldagi huquqiy-texnik talablarga javob berishi kerak. Bunda, albatta, qonun loyihasi muhokamasiga jamoatchi-likni, nodavlat notijorat tashkiloti vakillarini, ommaviy

axborot vositalarini yanada kengroq jalb qilish lozim. Ayniqsa, qonun loyihalariga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari ham aynan shu tarzda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Pirovardida, bu qonunchilikning isloh qilinishida nafaqat qonun chiqaruvchi xokimiyatning, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar vakillarining faol ishtirokiga olib keladi. Tabiiyki, bu "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili amalda qaror topishining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ya'ni, xukumatimiz tomonidan huquqiy madaniyatni yuksaltirish, aholining huquqiy ongini oshirish borasida olib borilayotgan siyosat yanada salmoqli, samarali bo'lishining garovi hisoblanadi.

Prezidentimiz qo'shma majlisdagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, mamlakatimiz oliy qonun chiqaruvchi organi istiqbolda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitda faoliyat yuritishiga to'g'ri keladi. Avvalo, Inqirozga qarshi choralar dasturining samarali ijro etilishini ta'minlash, sud-huquq islohotlarini yanada chuqurlashtirish yuksak tashabbuskorlikni, qonun ijodkorligi yo'nalishida faollikni talab etmoqda.

Umuman olganda, huquqiy madaniyat yuksak umuminsoniy qadriyat bo'lganligi sababli, har bir shaxsning hulq-atvorida, harakatlarida (harakatsizligida) normativ huquqiy hujjatda ifoda etilgan umumijtimoiy va sub'yektiv huquqlarni amalga oshirish hamda majburiyatlarni bajarishda yorqin namoyon bo'ladi. Sub'yektiv huquq va majburiyatlardan foydalanish, pirovardida, huquqni qo'llash orqali ta'minlanadi. Huquqiy normaning hayotiyliigi va samaradorligi qachonki, huquqni qo'llovchi sub'yekt uni idrok etsa va rioya qilsagina ta'minlanishi mumkin.

Huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish mexanizmida kasbiy huquqiy madaniyatni oshirmasdan turib, huquq normasining amaliyotda qo'llash samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

References:

1. «Oribjonovich, K. H. (2022). PEDAGOGICAL SKILL IN THE ACTIVITY OF A TEACHER IS A PRODUCT OF INDIVIDUAL CHARACTERISTICS. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 18-22.
2. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLIK HUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 560-563.
3. Qodirov , X., Norinov , M., & Ergashev , A. (2023). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLASHUV XUSUSIYATLARI. *Research and Implementation*, 1(6), 45-50. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/991>
4. Эватов, С. С., & Ибрагимова, С. И. (2022). ЎСМИР ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ. *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR*, 8-9.
5. Sobirovich, E. S. (2022). CONTENT AND SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE Teacher at Fergana State University. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 176-180.
6. Evatov, S. S. (2021). Formation of students communicative competence in the process of continuous education. *Current research journal of pedagogics*, 2(05), 13-19.

7. Qodirov, X., Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). O'ZBEK JADID MUTAFAKKIRI ABDULLA AVLONIYNING INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI. *Research and Implementation*, 1(6), 40–44. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/990>
8. Qodirov, X. (2023). THE CLASSIFICATION OF INNOVATIVENESS ON THE LEVEL OF AN INDIVIDUAL AS PROPERTY OF THE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CULTURE. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(1), 8. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a8
9. Мухтаров, Ф. М., & Орибжонович, Қ. Х. (2023, April). Олий Таълимда Инновацион-Педагогик Фаолиятнинг Ижтимоий-Психологик Хусусиятлари. In *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses* (pp. 39-44).
10. O'ktamovich, B. I., Oribjonovich, Q. X., Najimudin o'g, N. M. R., & Abdugoffor o'gli, X. A. (2023, April). OTM Talabalarida Pedagogik Maxoratini Rivojlantirish Masalalari. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 100-104).
11. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). OLIY TALIM TALABALARIDA PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 7-11).
12. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). TARBIYA FANI O 'QITUVCHISINING TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA SIRTQI TA'LIM TALABALARIDA DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. In *International Congress on Models and methods in Modern Investigations* (pp. 1-6).
13. Oribjonovich, Q. X., & Najimudin o'g, N. M. R. (2023). INSON INTELEKTUAL VA MA'NAVIY KAMOLOTI BOSQICHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 39-43.
14. Oribjonovich, Q. X., & Najimudin o'g, N. M. R. (2023). FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA TOLERANTLIK MADANIYATINING O 'RNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 44-46.
15. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). ЗНАЧЕНИЕ КООПЕРАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ХАРАКТЕРИСТИК ЧЕЛОВЕЧНОСТИ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 560-563.
16. Qodirov, X. (2023). ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОСТИ НА УРОВНЕ ЛИЧНОСТИ КАК СЛЕДСТВИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 38-41.